

## O'zbekistonda zoologiya fani

Joriy yil 20-21-iyun kunlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutida "O'zbekiston zoologiya fani: hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Anjumanda zoologiya fanining hozirgi yutuqlari va fandagi dolzarb muammolar aks ettirilgan ma'ruzalar tinglandi va muhokama qilindi. Ushbu anjumanda respublikamiz miqyosida faoliyat olib boruvchi turli ta'lif muassalardagi yetakchi va yosh olimlar faol ishtirok etib, fandagi olib boriladigan ilmiy izlanishlar natijalari bilan o'zaro fikr almashdilar.



Anjuman so'ngida qiziqarli va dolzarb ma'ruzalari bilan ishtirok etgan mualliflar Institut rahbariyati tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi.

